



[q] tovushi – undosh tovush. Talaffuzida havo to'siqqa uchraydi va shovqin bilan tovush hosil bo'ladi.



21

“O” va “O”ga o'xshasam-da, “Alifbo”da o'rnim bor.

Qarang, xuddi quyunchadek Mening ham o'z dumim bor.



	a	o	i	u	o'	e
q	qa	qo	qi	qu	qo'	qe

Qa	qat	qa-tor	qa-tiq	Qam-bar
Qo	qor	qo-ra	qo-rin	Qo-dir
Qu	qum	qu-loq	qu-duq	Qum-ri
Qi	qir	qi-dir	qi-liq	Yor-qin
Qo'	qo'l	qo'-ra	qo'-nim	Qo-bil

El qad-ri-ni el bi-lar,
 qad-ri-ni – yer.

Ilm – o-qar bu-loq,
 Ilm – yo-nar .

Qizil kitob

Qizil kitob – noyob kitob. Unga yo'qolib borayotgan hayvonlar, qushlar, o'simliklar nomlari kiritilgan.